“RO‘YXATGA OLINGAN”
Toshkent shahri Shayxontohur tumani “Davlat xizmatlari markazi” tomonidan
2023-yil 6-iyunda
1405-son bilan

“TASDIQLANGAN”
“O‘zkimyosanoat” AJ yagona aksiyadorining
2023-yil 29-maydagi
5-son qarori bilan

# “O‘ZKIMYOSANOAT” AKSIYADORLIK JAMIYATI USTAVI

*(YANGI TAHRIR)*

**Toshkent – 2023-yil**

«ЗАРЕГИСТРИРОВАНО»
в «Центре государственных услуг» Шайхантахурского района г. Ташкента
от «6» июня 2023 года № 1405

«УТВЕРЖДЕНО»
решением единственного акционера
АО «Узкимёсаноат»
от «29» мая 2023 года № 5

# УСТАВ АКЦИОНЕРНОГО ОБЩЕСТВА «УЗКИМЁСАНОАТ»

*(НОВАЯ РЕДАКЦИЯ)*

**Ташкент – 2023 год**

| O‘ZBEK TILIDA | НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ |
|---|---|
| **I bo‘lim.<br>Umumiy qoidalar** | **Раздел I.<br>Общие положения** |
| 1.1. “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kimyo sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2001-yil 13-martdagi 124-son va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 12-apreldagi PQ-2884-son qarorlari asosida tashkil etilgan va faoliyat olib bormoqda.<br><br>1.2. Jamiyat barcha aksiyadorlariga nisbatan ularning ulushlari, daromadlari darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, teng munosabatni ta’minlaydi. | 1.1. Акционерное общество «Узкимёсаноат» создано и функционирует на основании постановлений Кабинетов Министра Республики Узбекистан «О мерах по совершенствованию структуры управления химической промышленностью» от 13 марта 2001 года № 124 и Президента Республики Узбекистан «О мерах по совершенствованию структуры управления АО «Узкимёсаноат» от 12 апреля 2017 года № ПП-2884.<br>1.2. Общество обеспечивает равное отношение ко всем акционерам, независимо от принадлежащих им долей, уровня доходов, пола, расы, религии, национальности, языка, социального происхождения, личного и общественного положения. |
| **II bo‘lim.<br>Jamiyatning firma nomi, joylashgan yeri va elektron pochta manzili** | **Раздел II.<br>Фирменное наименование Общества, его местонахождение и адрес электронной почты** |
| 2.1. Jamiyatning davlat tilidagi to‘liq firma nomi:<br><br>**“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati;**<br>Jamiyatning davlat tilidagi qisqartirilgan firma nomi:<br><br>**“O‘zkimyosanoat” AJ;**<br>Jamiyatning rus tilidagi to‘liq firma nomi:<br>**Акционерное общество «Узкимёсаноат»;**<br>Jamiyatning rus tilidagi qisqartirilgan firma nomi:<br>**АО «Узкимёсаноат»;**<br>Jamiyatning ingliz tilidagi to‘liq firma nomi:<br>**Joint-Stock Company “Uzkimyosanoat”;**<br>Jamiyatning ingliz tilidagi qisqartirilgan firma nomi:<br>**“Uzkimyosanoat” JSC.**<br>2.2. Bundan buyon matnda “Jamiyat” deb ataluvchi “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining joylashgan yeri va pochta manzili:<br>**100011, O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Shayxontohur tumani Navoiy ko‘chasi, 38-uy.**<br>2.3. Jamiyatning elektron pochta manzili: **info@uzkimyosanoat.uz.**<br>2.4. Jamiyatning rasmiy veb-sayti: **www.uzkimyosanoat.uz.** | 2.1. Полное фирменное наименование Общества на государственном языке:<br>**«O‘zkimyosanoat» aksiyadorlik jamiyati;**<br>Краткое фирменное наименование Общества на государственном языке:<br>**«O‘zkimyosanoat» AJ;**<br>Полное фирменное наименование Общества на русском языке:<br>**Акционерное общество «Узкимёсаноат»;**<br>Краткое фирменное наименование Общества на русском языке:<br>**АО «Узкимёсаноат»;**<br>Полное фирменное наименование Общества на английском языке:<br>**Joint-Stock Company «Uzkimyosanoat»;**<br>Краткое фирменное наименование Общества на английском языке:<br>**«Uzkimyosanoat» JSC.**<br>2.2. Местонахождение и почтовый адрес акционерного общества «Узкимёсаноат» (далее по тексту – Общество):<br>**100011, Республика Узбекистан, город Ташкент, Шайхантахурский район, улица Навоий, 38**<br>2.3. Адрес электронной почты Общества: **info@uzkimyosanoat.uz.**<br>2.4. Официальный веб-сайт Общества: **www.uzkimyosanoat.uz.** |

| III bo‘lim.<br>**Jamiyatning huquqiy mavqei** | Раздел III.<br>**Правовой статус Общества** |
|---|---|
| 3.1. Jamiyat yuridik shaxs bo‘lib, u o‘z mustaqil balansiga, alohida mol-mulkka, shu jumladan, o‘zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka egadir. O‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishga haqlidir.<br>3.2. Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi.<br>3.3. Jamiyat faoliyat ko‘rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.<br>3.4. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobraqamlarni ochishga haqlidir.<br>3.5. Jamiyat o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko‘rsatilgan yumaloq muhrga ega bo‘lishga haqli. Muhrda bir vaqtning o‘zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko‘rsatilishi mumkin.<br>3.6. Jamiyat o‘zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o‘z timsoliga, shuningdek, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli.<br>3.7. Kimyo sanoati, kimyo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va boshqa mustaqil korxonalar ularning ustav kapitalida Jamiyatning ulushi mavjudligidan qatiy nazar Jamiyat tarkibiga kirishi mumkin.<br>3.8. Jamiyat Boshqaruvi qaroriga (buyrug‘iga) asosan Jamiyat tarkibiga yuridik shaxslar qabul qilinishi yoki chiqarilishi mumkin. | 3.1. Общество является юридическим лицом и имеет в собственности обособленное имущество, в том числе имущество, переданное ему в уставный фонд (уставный капитал), учитываемое на его самостоятельном балансе, может от своего имени приобретать и осуществлять имущественные и личные неимущественные права, нести обязанности, быть истцом и ответчиком в суде.<br>3.2. Общество приобретает статус юридического лица с момента его государственной регистрации.<br>3.3. Общество создается на неограниченный срок.<br>3.4. Общество вправе открывать банковские счета на территории Республики Узбекистан и за ее пределами.<br>3.5. Общество вправе иметь круглую печать, содержащую ее полное фирменное наименование на государственном языке и указание места ее нахождения. В печати может быть одновременно указано фирменное наименование на любом другом языке.<br>3.6. Общество вправе иметь штампы и бланки со своим наименованием, собственную эмблему, а также зарегистрированные в установленном порядке товарный знак и другие средства индивидуализации участников гражданского оборота, товаров, работ и услуг.<br>3.7. Предприятия химической промышленности, производители химической продукции и другие независимые предприятия могут входить в состав Общества вне зависимости от наличия доли Общества в их уставных капиталах.<br>3.8. На основании решения (приказа) Правления Общества юридические лица могут быть включены или исключены из состава Общества. |
| **IV bo‘lim.<br>Jamiyat faoliyatining sohasi<br>(asosiy yo‘nalishlari), maqsadi va huquqlari** | **Раздел IV.<br>Предмет (основные направления)<br>и цели деятельности Общества** |
| 4.1. Jamiyat o‘z faoliyatini tijorat asosida amalga oshiradi va Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini rivojlantirish orqali foyda olishdir.<br>4.2. Jamiyatning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari: | 4.1. Общество осуществляет свою деятельность на коммерческой основе и основной целью деятельности Общества является получение прибыли путем развития химической промышленности Республики Узбекистан.<br>4.2. Основные задачи и направления деятельности Общества: |

| | |
|---|---|
| 4.2.1. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari va kimyo korxonalari tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxi darajasiga ta’sir o‘tkazuvchi omillarni chuqur tahlil etish, resurs va energiya tejaydigan zamonaviy texnologiya va uskunalarni, ishlab chiqarish jarayonlari va sotuvlarni boshqarishning eng yangi elektron-axborot tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning materiallar sig‘imini kamaytirish, boshqaruv xodimlari sonini va noishlab chiqarish sarf-xarajatlarini optimallashtirish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar tannarxini tubdan pasaytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish. | 4.2.1. Проведение глубокого анализа факторов, влияющих на уровень издержек производства и себестоимости производимой химическими предприятиями продукции, выработку конкретных мер по их кардинальному снижению за счет внедрения современных ресурсо- и энергосберегающих технологий и оборудования, новейших электронно-информационных систем управления производственными процессами и продажами, сокращению материалоемкости продукции, оптимизации численности управленческого персонала и непроизводительных затрат. |
| 4.2.2. Tarmoqda ishlab chiqarishni yanada diversifikatsiyalashga, mamlakat mineral xomashyo resurslari zaxiralarini tobora chuqurroq qayta ishlashga, yuqori qo‘shilgan qiymatli xaridorgir sifatli kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni va tarmoq korxonalarida texnologik xavfsizlikni ta’minlaydigan yuqori texnologiyali zamonaviy uskunalar va innovatsion texnologiyalarni tarmoqqa keng joriy etishga yo‘naltirilgan yagona texnik siyosatni amalga oshirish. | 4.2.2. Проведение единой технической политики в отрасли, направленной на дальнейшую диверсификацию производства, более глубокую переработку отечественных запасов минерально-сырьевых ресурсов, широкое внедрение в отрасли современного высокотехнологического оборудования и инновационных технологий, обеспечивающих производство пользующейся спросом качественной химической продукции с высокой добавленной стоимостью и технологическую безопасность на предприятиях отрасли. |
| 4.2.3. Kimyo sanoati mahsulotlarining jahon konyunkturasi tendensiyalarini chuqur o‘rganish va buning asosida jahon bozorlarida xaridorgir bo‘lgan kimyo buyumlarining xilma-xil turlarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, mahalliy mahsulotlarni yangi tashqi bozorlarga olib chiqish. | 4.2.3. Глубокое изучение тенденций мировой конъюнктуры на продукцию химической промышленности и на этой основе освоение выпуска широкой номенклатуры химических изделий, пользующейся спросом на мировых рынках, продвижение отечественной продукции на новые внешние рынки. |
| 4.2.4. Import bo‘yicha respublikaga olib kelinayotgan kimyo mahsulotlarini tahlil qilish va kimyo ishlab chiqarishlarini mahalliylashtirish darajasini muttasil chuqurlashtirib borish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini, shu jumladan, kichik tadbirkorlik subyektlari bilan respublikamizning yirik korxonalari o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini kengaytirish. | 4.2.4. Анализ завозимой в республику по импорту химической продукции и постоянное углубление уровня локализации химических производств, расширение межотраслевой промышленной кооперации, в том числе с субъектами малого предпринимательства и крупными предприятиями республики. |
| 4.2.5. Respublika qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini agrotexnologiya normalariga muvofiq mutanosib nisbatdagi azot, fosfor, kaliy va kompleks o‘g‘itlar bilan barqaror ta’minlash. | 4.2.5. Устойчивое обеспечение сельскохозяйственных товаропроизводителей республики азотными, фосфорными, калийными и комплексными удобрениями в их сбалансированном соотношении в соответствии с агротехнологическими нормами. |
| 4.2.6. Faol investitsiya siyosatini yuritish, loyiha ishlari, ularning ekspertizasini takomillashtirish, tarmoqqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish. | 4.2.6. Проведение активной инвестиционной политики, совершенствование проектных работ, их экспертизы, привлечение в отрасль прямых иностранных инвестиций. |
| 4.2.7. “O‘zkimyosanoat” AJ tuzilmasiga kiruvchi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirishga ko‘maklashish, ularda zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish va takomillashtirish. | 4.2.7. Содействие в повышении эффективности деятельности акционерных обществ, входящих в структуру АО «Узкимёсаноат», внедрение и совершенствование в них современных методов корпоративного управления. |

| | |
|---|---|
| 4.2.8. Yangi raqobatdosh, innovatsion texnologiyalar, mahsulot turlari yaratish va joriy etishga, mahsulotga energiya va resurs sarfini kamaytirishga, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar, shu jumladan, tarmoqlararo ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish.<br>4.2.9. Zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini egallagan, bozor sharoitlarida ishlarni samarali tashkil eta oladigan muhandis-texnik va boshqaruv kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash.<br><br>4.3. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanish huquqiga ega.<br>4.4. Jamiyat ruxsatnoma (litsenziya) talab qiladigan faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli ruxsatnoma (litsenziya) olinganidan so‘ng ushbu faoliyatni amalga oshirishga haqli.<br><br>4.5. Jamiyat quyidagi huquqlarga ega:<br>4.5.1. O‘z filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish.<br>4.5.2. Yuridik shaxs bo‘lgan sho‘ba xo‘jalik jamiyatlari va tobe xo‘jalik jamiyatlariga ega bo‘lish.<br>4.5.3. O‘z mablag‘larini qo‘shma va boshqa turdagi korxonalar tashkil etishga jalb etish va tegishli daromad va foyda olish uchun boshqa turdagi faoliyatlarni amalga oshirish.<br>4.5.4. Ishga mehnat shartnomasi asosida qabul qilish, ishga fuqarolik – huquqiy shartnomasi (kontrakt) asosida jalb etish, ishga vaqtinchalik va boshqa turdagi ijodiy jamoatlar hamda mustaqil fukarolarni pudrat shartnomalari yoki amaldagi qonunchilikka muvofiq mehnat kelishuv bitimlari shartlari bilan jalb etish.<br>4.5.5. Jamiyat o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish maqsadida boshqa huquqlarga ham egadir. | 4.2.8. Поддержку и стимулирование научных исследований, в том числе межотраслевых, направленных на создание и внедрение новых конкурентных, инновационных технологий, видов продукции, снижение энерго- и ресурсоемкости продукции, издержек производства.<br><br>4.2.9. Повышение квалификации и переподготовку инженерно-технических и управленческих кадров, владеющих современными методами корпоративного управления, способных организовать эффективную работу в рыночных условиях.<br>4.3. Общество вправе заниматься иными видами деятельности не запрещенных законодательством Республики Узбекистан.<br>4.4. Общество вправе для осуществления деятельности, для которой требуется специальное разрешение (лицензия), осуществлять эту деятельность после получения соответствующего специального разрешения (лицензии).<br>4.5. Общество имеет право:<br>4.5.1. Создавать филиалы и открывать представительства.<br>4.5.2. Иметь дочерние и зависимые хозяйственные общества с правами юридического лица.<br>4.5.3. Вкладывать свои средства в создание совместных и иных предприятий и осуществлять другие виды деятельности для получения соответствующей прибыли.<br>4.5.4. Принимать на работу по трудовому договору (контракту), привлекать для работы по гражданско-правовому договору (контракту) и привлекать для работы временные и иные творческие коллективы и отдельных граждан на условиях подрядных договоров или трудового соглашения согласно действующему законодательству.<br>4.5.5. Иные права для выполнения поставленных задач и функций перед Обществом. |
| **V bo‘lim.<br>Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori** | **Раздел V.<br>Размер уставного фонда (уставного капитала) Общества** |
| 5.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xildir.<br><br>5.2. Jamiyat Ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori 904 063 950 935 (to‘qqiz yuz to‘rt milliard oltmish uch million to‘qqiz yuz ellik | 5.1. Уставный фонд (уставный капитал) Общества составляется из номинальной стоимости акций Общества, приобретенных акционерами, и выражается в национальной валюте Республики Узбекистан. Номинальная стоимость всех выпускаемых Обществом акций должна быть одинаковой.<br>5.2. Размер уставного фонда (уставного капитала) Общества составляет 904 063 950 935 (девятьсот четыре миллиарда шестьдесят |

| | |
|---|---|
| ming to'qqiz yuz o'ttiz besh) so'mni tashkil qiladi hamda nominal qiymati 1 145 (bir ming bir yuz qirq besh) so'm bo'lgan 789 575 503 (yetti yuz sakson to'qqiz million besh yuz yetmish besh ming besh yuz uch) dona egasi yozilgan oddiy aksiyalarga bo'lingan. | три миллиона девятьсот пятьдесят тысяч девятьсот тридцать пять) сум и разделен на 789 575 503 (семьсот восемьдесят девять миллионов пятьсот семьдесят пять тысяч пятьсот три) штук простых именных акций номинальной стоимостью 1 145 (одна тысяча сто сорок пять) сум. |
| **VI bo'lim.**<br>**Jamiyat aksiyalarining soni, nominal qiymati, turlari** | **Раздел VI.**<br>**Количество, номинальная стоимость, типы акций Общества** |
| 6.1. Jamiyat tomonidan 789 575 503 (yetti yuz sakson to'qqiz million besh yuz yetmish besh ming besh yuz uch) dona egasi yozilgan oddiy aksiyalar chiqarilgan va joylashtirilgan.<br>6.2. Jamiyat ustav fondini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarining soni 2 000 000 000 (ikki milliard) dona egasi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat.<br>6.3. Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati 1 145 (bir ming bir yuz qirq besh) so'm. | 6.1. Обществом выпущены и размещены 789 575 503 (семьсот восемьдесят девять миллионов пятьсот семьдесят пять тысяч пятьсот три) штук простых именных акций.<br>6.2. Размер объявленных акций Общества, которые Общество вправе размещать дополнительно к размещенным акциям составляет 2 000 000 000 (два миллиарда) штук простых именных акций.<br>6.3. Номинальная стоимость акций Общества составляет 1 145 (одна тысяча сто сорок пять) сум. |
| **VII bo'lim.**<br>**Jamiyatning ustav fondini**<br>**(ustav kapitalini) ko'paytirish va kamaytirish** | **Раздел VII.**<br>**Порядок увеличения и уменьшения**<br>**уставного фонда (уставного капитала) Общества** |
| 7.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.<br>7.2. Qo'shimcha aksiyalar mazkur ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasidagina Jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.<br>7.3. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish to'g'risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.<br>7.4. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilangan bo'lishi kerak.<br>7.5. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda mazkur ustavda ko'rsatilgan, e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga kamaytirilishi kerak. | 7.1. Уставный фонд (уставный капитал) Общества может быть увеличен путем размещения дополнительных акций.<br>7.2. Дополнительные акции могут быть размещены Обществом только в пределах количества объявленных акций, установленного настоящим уставом.<br>7.3. Решения об увеличении уставного фонда (уставного капитала) Общества и о внесении соответствующих изменений в устав Общества принимаются общим собранием акционеров Общества.<br>7.4. Решением об увеличении уставного фонда (уставного капитала) Общества должны быть определены количество размещаемых дополнительных простых акций и привилегированных акций, сроки и условия их размещения.<br>7.5. Увеличение уставного фонда (уставного капитала) Общества регистрируется в размере номинальной стоимости размещенных дополнительных акций. При этом количество объявленных акций определенных типов, указанное в настоящем уставе, должно быть уменьшено на число размещенных дополнительных акций этих типов. |

| | |
|---|---|
| 7.6. Jamiyatning tegishli boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qo‘shimcha aksiyalarni chiqarish haqidagi qaror Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarordir.<br>7.7. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Jamiyatning o‘z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.<br><br>7.8. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) uning o‘z kapitali hisobidan ko‘paytirishda qo‘shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo‘lsa, ayni o‘sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) ko‘paytirilishi natijasida ko‘paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta’minlanmaydigan bo‘lsa, Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.<br>7.9. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan, aksiyadorlar o‘rtasida joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish) narxi Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi tomonidan qimmatli qog‘ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar konyunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.<br>7.10. Jamiyat aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog‘ozlarni ochiq va yopiq obuna vositasida, tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolarida qonunchilikda belgilangan tartibda joylashtirishga haqli.<br><br>7.11. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag‘lari bilan to‘lanadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega. Aksiyador, shu jumladan, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni o‘ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga ega.<br>7.12. Jamiyatning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish chog‘ida ularga haq to‘lash pul va boshqa to‘lov vositalari, mol-mulk, shuningdek, pulda ifodalanadigan bahoga ega bo‘lgan huquqlar (shu jumladan, mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi. Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlariga haq to‘lash tartibi ularni chiqarish to‘g‘risidagi qarorida belgilab qo‘yiladi. | 7.6. Решением об увеличении уставного фонда (уставного капитала) Общества является решение о выпуске дополнительных акций, принятое соответствующим органом управления Общества.<br>7.7. Увеличение уставного фонда (уставного капитала) Общества может осуществляться за счет привлеченных инвестиций, собственного капитала Общества и начисленных дивидендов в порядке, установленном законодательством.<br>7.8. При увеличении уставного фонда (уставного капитала) Общества за счет его собственного капитала дополнительные акции распределяются среди всех акционеров. При этом каждому акционеру распределяются акции того же типа, что и акции, которые ему принадлежат, пропорционально количеству принадлежащих ему акций. Не допускается увеличение уставного фонда (уставного капитала) Общества, в результате которого не обеспечивается соответствие суммы увеличения к номинальной стоимости одной акции.<br>7.9. При принятии решения о размещении акций, в том числе среди акционеров, цена размещения (выставления на организованные торги ценными бумагами) акций устанавливается общим собранием акционеров Общества исходя из конъюнктуры цен, складывающихся на площадках организаторов торгов ценными бумагами.<br><br>7.10. Общество вправе проводить размещение акций и ценных бумаг, конвертируемых в акции, посредством открытой и закрытой подписки, на организованных торгах ценными бумагами в порядке, установленном законодательством.<br>7.11. При размещении Обществом акций и эмиссионных ценных бумаг, конвертируемых в акции, оплачиваемых денежными средствами, акционеры — владельцы голосующих акций имеют преимущественное право на их приобретение. Акционер, в том числе голосовавший против либо отсутствовавший на общем собрании акционеров, имеет преимущественное право приобретения акций и эмиссионных ценных бумаг, конвертируемых в акции, в количестве, пропорциональном количеству принадлежащих ему акций этого типа.<br>7.12. При размещении акций и иных ценных бумаг Общества их оплата осуществляется денежными и другими средствами платежа, имуществом, а также правами (в том числе имущественными), имеющими денежную оценку. Порядок оплаты дополнительных акций и иных ценных бумаг Общества определяется решением об их выпуске. |

| | |
|---|---|
| 7.13. Jamiyatning qoʻshimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish toʻgʻrisidagi qarorda koʻrsatilgan joylashtirish muddati ichida haq toʻlanishi lozim.<br>7.14. Agar Jamiyatning puldan oʻzga vositalar bilan haqi toʻlanayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qogʻozlarining nominal qiymati qonunchilikda belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan koʻpni tashkil etsa, Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qogʻozlarining haqi sifatida kiritilayotgan mol-mulkning pulda ifodalangan bahosi baholovchi tashkilot tomonidan chiqarilishi zarur.<br>7.15. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yoʻli bilan, shu jumladan, aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yoʻli bilan kamaytirilishi mumkin.<br>7.16. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish toʻgʻrisidagi va Jamiyat ustaviga tegishli oʻzgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi tomonidan qabul qilinadi.<br>7.17. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish toʻgʻrisida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish sabablarini koʻrsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.<br>7.18. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish toʻgʻrisida qaror qabul qilingan sanadan eʼtiboran oʻttiz kundan kechiktirmay oʻz kreditorlarini bu haqda yozma shaklda xabardor qiladi. Kreditorlar Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish toʻgʻrisida oʻzlariga bildirish yuborilgan sanadan eʼtiboran oʻttiz kundan kechiktirmay Jamiyatdan oʻz majburiyatlarini muddatidan oldin bajarishini va ustav fondi (ustav kapitali) kamaytirilishi bilan bogʻliq zararlarning oʻrnini qoplashini talab qilishga haqli. | 7.13. Дополнительные акции Общества должны быть оплачены в течение срока размещения, указанного в решении о выпуске этих акций.<br>7.14. Если номинальная стоимость оплачиваемых не денежными средствами акций и иных ценных бумаг Общества составляет более двухсоткратного размера установленной законодательством базовой расчетной величины, то необходима денежная оценка оценочной организацией имущества, вносимого в оплату акций и иных ценных бумаг Общества.<br>7.15. Уставный фонд (уставный капитал) Общества может быть уменьшен путем уменьшения номинальной стоимости акций или сокращения их общего количества, в том числе путем приобретения части акций Обществом с последующим их аннулированием.<br>7.16. Решения об уменьшении уставного фонда (уставного капитала) Общества и о внесении соответствующих изменений в устав Общества принимаются общим собранием акционеров.<br>7.17. Принимая решение об уменьшении уставного фонда (уставного капитала) Общества, общее собрание акционеров указывает причины уменьшения уставного фонда (уставного капитала) и устанавливает порядок его уменьшения.<br>7.18. Не позднее тридцати дней с даты принятия решения об уменьшении уставного фонда (уставного капитала), Общество в письменной форме уведомляет об этом своих кредиторов. Кредиторы вправе не позднее тридцати дней с даты направления им уведомления об уменьшении уставного фонда (уставного капитала) Общества потребовать от Общества досрочного исполнения его обязательств и возмещения, связанных с этим убытков. |
| **VIII boʻlim.<br>Jamiyat boshqaruv organlari, ularni shakllantirish tartibi va vakolatlari** | **Раздел VIII.<br>Органы управления Общества, порядок их формирования и полномочия этих органов** |
| 8.1. Aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi, Kuzatuv kengashi va ijroiya organi (Boshqaruv) Jamiyatning boshqaruv organlaridir. | 8.1. Органами управления Общества являются общее собрание акционеров, Наблюдательный совет и исполнительный орган (Правление). |

| | |
|---|---|
| 8.2. **Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi** Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir. Agar Jamiyatning barcha oddiy aksiyalari bitta aksiyadorga tegishli bo'lsa aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi. Mazkur ustav bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi kerak. | 8.2. **Общее собрание акционеров** является высшим органом управления Общества. в случае, если все простые акции Общества принадлежат одному акционеру, общие собрания акционеров не проводятся. Решения по вопросам, отнесенным настоящим уставом к компетенции общего собрания акционеров, принимаются таким акционером единолично и подлежат оформлению в письменной форме. |
| 8.3. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Jamiyat kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi. | 8.3. Общее собрание акционеров ведет председатель наблюдательного совета Общества, а в случае его отсутствия по уважительным причинам — один из членов Наблюдательного совета Общества. |
| 8.4. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart. | 8.4. Общество обязано ежегодно проводить общее собрание акционеров (годовое общее собрание акционеров). |
| 8.5. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Odatda, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi iyun oyining to'rtinchi haftasi-juma kuni o'tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Jamiyatning kuzatuv kengashini va taftish komissiyasini saylash to'g'risidagi, Jamiyatning boshqaruv raisi va a'zolari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 59-moddasi birinchi qismining o'n ikkinchi va o'n uchinchi xatboshilariga va mazkur ustavga muvofiq Jamiyatning yillik hisoboti, Jamiyat boshqaruvi va kuzatuv kengashining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi. | 8.5. Годовое общее собрание акционеров проводится не позднее чем через шесть месяцев после окончания финансового года. Как правило, годовое общее собрание акционеров проводится в пятницу четвертой недели июня месяца. На годовом общем собрании акционеров решаются вопросы об избрании Наблюдательного совета и ревизионной комиссии Общества, о возможности продления срока, перезаключения или расторжения договора с Председателем и членами правления Общества, а также рассматриваются годовой отчет Общества, отчеты Правления и Наблюдательного совета Общества о принимаемых мерах по достижению стратегии развития Общества и иные документы в соответствии с абзацами двенадцатым и тринадцатым части первой статьи 59 Закона «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» и настоящим уставом. |
| 8.6. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir. | 8.6. Проводимые помимо годового общие собрания акционеров являются внеочередными. |
| 8.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi. | 8.7. Дата и порядок проведения общего собрания акционеров, порядок сообщения акционерам о его проведении, перечень предоставляемых акционерам материалов (информации) при подготовке к проведению общего собрания акционеров устанавливаются наблюдательным советом Общества. |
| 8.8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi. | 8.8. К компетенции общего собрания акционеров относятся. |
| 8.8.1. Jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash. | 8.8.1. Внесение изменений и дополнений в устав Общества или утверждение устава Общества в новой редакции. |
| 8.8.2. Jamiyatni qayta tashkil etish; | 8.8.2. Реорганизация Общества. |
| 8.8.3. Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash; | 8.8.3. Ликвидация Общества, назначение ликвидатора (ликвидационной комиссии) и утверждение промежуточного и окончательного ликвидационных балансов; |

| | |
|---|---|
| 8.8.4. Jamiyat kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a’zolarini saylash va a’zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish; | 8.8.4. Определение количественного состава наблюдательного совета Общества, избрание их членов и досрочное прекращение их полномочий. |
| 8.8.5. E’lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash. | 8.8.5. Определение предельного размера объявленных акций. |
| 8.8.6. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish. | 8.8.6. Уменьшение уставного фонда (уставного капитала) Общества. |
| 8.8.7. O‘z aksiyalarini olish. | 8.8.7. Приобретение собственных акций. |
| 8.8.8. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, boshqaruv raisi va a’zolarini saylash (tayinlash) va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Shuningdek, Jamiyat kuzatuv kengashi Jamiyatning boshqaruvi raisi va a’zolari bilan tuzilgan shartnomani, agar ular Jamiyat ustavini qo‘pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Jamiyatga zarar yetkazilgan bo‘lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega. | 8.8.8. Утверждение организационной структуры Общества, избрание (назначение) Председателя и членов правления и досрочное прекращение их полномочий. При этом, наблюдательный совет Общества имеет право досрочного прекращения (расторжения) договора с председателем и членами правления Общества при совершении ими грубых нарушений устава Общества или причинении Общества убытков их действиями (бездействием). |
| 8.8.9. Jamiyat taftish komissiyasining a’zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek, taftish komissiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash. | 8.8.9. Избрание членов ревизионной комиссии Общества и досрочное прекращение их полномочий, а также утверждение положения о ревизионной комиссии. |
| 8.8.10. Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek, Jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o‘rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash. Zarur hollarda Jamiyatning tasdiqlangan rivojlantirish strategiyalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish. | 8.8.10. Утверждение годового отчета, а также стратегии развития Общества на среднесрочный и долгосрочный период с определением ее конкретных сроков исходя из основных направлений и цели деятельности Общества. В необходимых случаях внесение изменений и дополнений в утвержденные стратегии развития Общества. |
| 8.8.11. Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash. | 8.8.11. Распределение прибыли и убытков Общества. |
| 8.8.12. Jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining o‘z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, Jamiyatni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining xulosalarini eshitish. | 8.8.12. Заслушивание отчетов наблюдательного совета и заключений ревизионной комиссии Общества по вопросам, входящим в их компетенцию, в том числе по соблюдению установленных законодательством требований по управлению Обществом. |
| 8.8.13. Majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish. | 8.8.13. Принятие решения об определении аудиторской организации для проведения обязательной аудиторской проверки, о предельном размере оплаты ее услуг и заключении (расторжении) с ней договора. |
| 8.8.14. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash. | 8.8.14. Утверждение регламента общего собрания акционеров. |
| 8.8.15. Aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish. | 8.8.15. Дробление и консолидация акций. |
| 8.8.16. Jamiyatning boshqaruv raisi va a’zolariga to‘lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni eng yuqori miqdorlarini belgilash. | 8.8.16. Установление предельных размеров, выплачиваемых председателю и членам правления Общества вознаграждений и (или) компенсаций. |
| 8.8.17. O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” Qonunining | 8.8.17. Принятие решения о совершении Обществом сделок в случаях, предусмотренных главами 8 и 9 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров». |

8- va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish.

8.8.18. Jamiyatning kundalik xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bitmlarni aniqlash.

8.8.19. Xayriya (homiylik) yoki beg‘araz yordamni eng ko‘p miqdorlarini belgilash.

8.8.20. Mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilgan holda, biznes jarayonlar va loyihalarning Jamiyat rivojlanish maqsadlariga muvofiqligining har yillik tahlilini o‘tkazish bo‘yicha qaror qabul qilish.

8.8.21. “Ichki nazorat”, “Dividend siyosati”, “Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomlarni tasdiqlash.

8.8.22. Auditorlik tashkilotlarining hisoblarini har yili tasdiqlash.

8.8.23. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish bo‘yicha qaror qabul qilish.

8.8.24. Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror (aksiyalar, obligatsiyalar) va emissiya risolasini tasdiqlash.

8.8.25. Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorga (aksiyalar, obligatsiyalar) va emissiya risolasiga o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritish va ularning matnini tasdiqlash.

8.8.26. O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” Qonunining 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash.

8.8.27. Mazkur Jamiyat ustaviga va qonunchilikka muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

8.9. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning boshqaruviga hal qilish uchun berilishi mumkin emas.

8.10. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek, ovoz berish yakunlari aksiyadorlar e’tiboriga:

- aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tugaganidan so‘ng e’lon qilish;
- aksiyadorlar umumiy yig‘ilish bayonnomasi tuzilgan sanadan ikki ish kuni davomida muhim fakt to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish yo‘llari bilan yetkaziladi.

Agar Jamiyat aksiyalari fond birjasining listingiga kiritilgan bo‘lsa, Jamiyat fond birjasining rasmiy veb-saytida tegishli axborotni e’lon qilishi shart.

8.11. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning moliya yili

8.8.18. Определение сделок, связанных с текущей хозяйственной деятельностью Общества.

8.8.19. Определение предельных размеров благотворительной (спонсорской) или безвозмездной помощи.

8.8.20. Принятие решения о проведении ежегодного анализа соответствия бизнес-процессов и проектов целям развития Общества с привлечением независимых профессиональных организаций – консультантов.

8.8.21. Утверждение положений о “внутреннем контроле”, о “дивидендной политике”, о “порядке действий при конфликте интересов”.

8.8.22. Ежегодное утверждение отчетов аудиторских организаций.

8.8.23. Принятие решения по увеличению уставного фонда (уставного капитала) Общества.

8.8.24. Утверждение решения о выпуске ценных бумаг (акций, облигаций) и проспекта эмиссии.

8.8.25. Внесение изменений и (или) дополнений в решение о выпуске ценных бумаг (акций, облигаций) и проспект эмиссии и утверждение их текста.

8.8.26. Определение цены размещения (выставления на организованные торги ценными бумагами) акций в соответствии со статьей 34 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров».

8.8.27. Решение иных вопросов в соответствии с законодательством и настоящим уставом Общества.

8.9. Вопросы, отнесенные к компетенции общего собрания акционеров, не могут быть переданы на решение правлению Общества.

8.10. Решения, принятые общим собранием акционеров, а также итоги голосования доводятся до сведения акционеров путем:

- их оглашения после окончания общего собрания акционеров;
- раскрытия информации в сообщении о существенном факте в течение двух рабочих дней с даты составления протокола общего собрания акционеров.

В случае нахождения акций Общества в листинге фондовой биржи, Общество обязано также опубликовать на официальном веб-сайте фондовой биржи соответствующую информацию.

8.11. Акционеры (акционер), владеющие в совокупности не менее чем одним процентом голосующих акций общества, не позднее девяноста

| | |
|---|---|
| tugaganidan keyin to'qson kundan kechiktirmay, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Jamiyatning kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga (taftishchiligiga) ushbu kengashning va komissiyaning (taftishchilarning) son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli, bundan kuzatuv kengashining mustaqil a'zoligiga nomzodlar ko'rsatish mustasno. | дней после окончания финансового года общества, вправе внести вопросы в повестку дня годового общего собрания акционеров и выдвинуть кандидатов в наблюдательный совет и ревизионную комиссию (ревизоры) общества, число которых не может превышать количественного состава настоящего совета и комиссии (ревизоров), за исключением выдвижения кандидатов в независимые члены наблюдательного совета; |
| 8.12. Aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay o'zgartirishlar kiritishga haqli. | 8.12. Акционеры (акционер) вправе внести изменения в список выдвинутых ими кандидатов в Наблюдательный совет и ревизионную комиссию Общества не позднее трех рабочих дней с даты опубликования сообщения о проведении годового общего собрания акционеров. |
| 8.13. Aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar ovoz berishda birgalikdagi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzishi mumkin. | 8.13. Акционеры, включая миноритарных акционеров, могут заключить акционерное соглашение для формирования совместной позиции при голосовании. |
| 8.14. **Kuzatuv kengashi** Jamiyatning faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. | 8.14. **Наблюдательный совет** осуществляет общее руководство деятельностью Общества. |
| 8.15. Jamiyat kuzatuv kengashning son tarkibi 7 (yetti) kishidan iborat, shundan, 3 (uch) kishi mustaqil a'zolar sifatida Kuzatuv kengashi tarkibiga kiritiladi. | 8.15. Количественный состав наблюдательного совета Общества состоит из 7 (семь) человек, из них 3 (три) человека, входящих в состав наблюдательного совета в качестве независимых членов. |
| 8.16. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi: | 8.16. К компетенции наблюдательного совета Общества относится: |
| 8.16.1. Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash. | 8.16.1. определение приоритетных направлений деятельности Общества с регулярным заслушиванием отчета правления Общества о принимаемых мерах по достижению стратегии развития Общества; |
| 8.16.2. Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, bundan O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 65-moddasining o'n birinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno. | 8.16.2. Созыв годовых и внеочередных общих собраний акционеров, за исключением случаев, предусмотренных частью одиннадцатой статьи 65 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров». |
| 8.16.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash. | 8.16.3. Подготовка повестки дня общего собрания акционеров. |
| 8.16.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyini belgilash. | 8.16.4. Определение даты, времени и места проведения общего собрания акционеров. |
| 8.16.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash. | 8.16.5. Определение даты формирования реестра акционеров Общества для оповещения о проведении общего собрания акционеров. |
| 8.16.6. O'zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunining 59-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish. | 8.16.6. Внесение на решение общего собрания акционеров вопросов, предусмотренных абзацем вторым части первой статьи 59 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров». |
| 8.16.7. Mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish. | 8.16.7. Организация установления рыночной стоимости имущества. |

| | |
|---|---|
| 8.16.8. Qonunchilikda va mazkur ustavda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning Boshqaruv raisi va a’zolarini vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish.<br>8.16.9. Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash.<br>8.16.10. Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek, har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish.<br>8.16.11. Jamiyat ijroiya organining faoliyatiga dahldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a’zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin.<br>8.16.12. Auditorlik tekshiruvini o‘tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish.<br>8.16.13. Jamiyatning taftish komissiyasi a’zolariga to‘lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish.<br>8.16.14. Dividend miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish.<br>8.16.15. Jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish.<br>8.16.16. Jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish.<br>8.16.17. Jamiyatning sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarini tashkil etish.<br>8.16.18. O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 8- va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish.<br>8.16.19. Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog‘liq bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish.<br>8.16.20. Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish.<br>8.16.21. Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish.<br>8.16.22. Qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish. | 8.16.8. Досрочное прекращение полномочий председателя и членов Правления Общества, в случаях предусмотренных законодательством и настоящим уставом.<br>8.16.9. Утверждение годового бизнес-плана Общества.<br>8.16.10. Создание службы внутреннего аудита и назначение её работников, а также ежеквартальное заслушивание ее отчетов.<br>8.16.11. Доступ к любым документам, касающимся деятельности исполнительного органа Общества, и получение их от исполнительного органа для исполнения возложенных на наблюдательный совет Общества обязанностей. Полученные документы могут использоваться наблюдательным советом Общества и его членами исключительно в служебных целях.<br>8.16.12. Принятие решения о проведении аудиторской проверки (кроме обязательной аудиторской проверки), об определении аудиторской организации, предельном размере оплаты ее услуг и заключении (расторжении) с ней договора.<br>8.16.13. Дача рекомендаций по размерам выплачиваемых членам ревизионной комиссии Общества вознаграждений и компенсаций.<br>8.16.14. Дача рекомендаций по размеру дивиденда, форме и порядку его выплаты.<br>8.16.15. Использование резервного и иных фондов Общества.<br>8.16.16. Создание филиалов и открытие представительств Общества.<br>8.16.17. Создание дочерних и зависимых хозяйственных обществ Общества.<br>8.16.18. Принятие решения о совершении сделок в случаях, предусмотренных главами 8 и 9 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров».<br>8.16.19. Заключение сделок, связанных с участием Общества в коммерческих и некоммерческих организациях, в порядке, установленном законодательством.<br>8.16.20. Принятие решения о выкупе корпоративных облигаций Общества.<br>8.16.21. Принятие решения о выпуске Обществом корпоративных облигаций, в том числе конвертируемых в акции.<br>8.16.22. Принятие решения о выпуске производных ценных бумаг. |

| | |
|---|---|
| 8.16.23. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarori bilan belgilangan chegara doirasida jamiyatning boshqaruvi raisi va a’zolariga to‘lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash. | 8.16.23. Установление размеров выплачиваемых председателю и членам Правления Общества вознаграждений и (или) компенсаций, в пределах установленных решением общего собрания акционеров. |
| 8.16.24. Xayriya (homiylik) yoki beg‘araz yordam ko‘rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash. | 8.16.24. Определение порядка и условий оказания (получения) благотворительной (спонсорской) или безвозмездной помощи. |
| 8.16.25. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilangan doirada, xayriya (homiylik) yoki beg‘araz yordam ko‘rsatish bo‘yicha qaror qabul qilish. | 8.16.25. Принятие решения об оказании благотворительной (спонсорской) или безвозмездной помощи в пределах, установленных общим собранием акционеров. |
| 8.16.26. Korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash. | 8.16.26. Назначение корпоративного консультанта и утверждение положения, определяющего порядок его деятельности. |
| 8.16.27. Axborot siyosati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash. | 8.16.27. Утверждение Положения об информационной политике. |
| 8.16.28. Kuzatuv kengashi qoshida kuzatuv kengashi a’zolaridan iborat Strategiya va investitsiyalar qo‘mitasi, Audit qo‘mitasi, Tayinlovlar va haq to‘lash qo‘mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi tashkil etish va ularning faoliyati tartibini belgilovchi nizomlarni tasdiqlash. | 8.16.28. Создание при Наблюдательном совете Комитета по стратегии и инвестициям, Комитета по аудиту, Комитета по назначениям и вознаграждениям, Комитета по противодействию коррупции и этике из числа членов наблюдательного совета и утверждение положений, определяющих порядок их деятельности. |
| 8.16.29. Aksiya va ulushlarga Jamiyat egalik qilayotgan korxona va tashkilotlarning boshqaruv organlarida Jamiyat nomidan uning vakillarini ovoz berish tartibini tasdiqlash. | 8.16.29. Утверждение порядка голосования от имени Общества его представителей в органах управления предприятий и организаций акциями и долями, которых владеет Общество. |
| 8.17. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonuni va mazkur ustavga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin. | 8.17. К компетенции наблюдательного совета Общества может быть отнесено решение и иных вопросов в соответствии с Законом Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» и настоящим уставом. |
| 8.18. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyatning boshqaruviga o‘tkazilishi mumkin emas. | 8.18. Вопросы, отнесенные к компетенции наблюдательного совета Общества, не могут быть переданы на решение правления Общества. |
| 8.19. Jamiyat kuzatuv kengashining a’zolari aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida saylangan kuzatuv kengashi a’zosi mazkur yig‘ilish bayonnomasida qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki kuzatuv kengashining qaysi a’zosi mustaqil a’zo ekanligi ko‘rsatilishi kerak. | 8.19. Члены наблюдательного совета Общества избираются общим собранием акционеров сроком на три года. В протоколе общего собрания акционеров должно быть указано, какого акционера представляет избранный на общем собрании акционеров член наблюдательного совета или какой член наблюдательного совета является независимым. |
| 8.20. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin. | 8.20. Лица, избранные в состав наблюдательного совета Общества, могут переизбираться неограниченно. |
| 8.21. Jamiyatning kuzatuv kengashi a’zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. | 8.21. Выборы членов наблюдательного совета Общества осуществляются кумулятивным голосованием. |
| 8.22. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi kerak bo‘lgan mustaqil a’zolar va boshqa a’zolar soniga alohida ko‘paytiriladi hamda aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to‘liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o‘rtasida taqsimlashga haqli. | 8.22. При кумулятивном голосовании число голосов, принадлежащих каждому акционеру, умножается отдельно на число независимых и других членов наблюдательного совета, которые должны быть избраны в наблюдательный совет общества, и акционер вправе отдать |

| | |
|---|---|
| | полученные таким образом голоса полностью за одного кандидата или распределить их между двумя и более кандидатами. |
| 8.23. Eng ko‘p ovoz to‘plagan nomzodlar jamiyat kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi. | 8.23. Избранными в состав наблюдательного совета Общества считаются кандидаты, набравшие наибольшее число голосов. |
| 8.24. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi kuzatuv kengashi a’zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan saylanadi. | 8.24. Председатель наблюдательного совета Общества избирается членами Наблюдательного совета из его состава большинством голосов от общего числа членов наблюдательного совета. |
| 8.25. Jamiyatning kuzatuv kengashi o‘z raisini kuzatuv kengashi a’zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli. | 8.25. Наблюдательный совет Общества вправе переизбрать своего председателя большинством голосов от общего числа членов наблюдательного совета. |
| 8.26. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida raislik qiladi. | 8.26. Председатель наблюдательного совета Общества организует его работу, созывает заседания наблюдательного совета и председательствует на них, организует на заседаниях ведение протокола, председательствует на общем собрании акционеров. |
| 8.27. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning Kuzatuv kengashi majlisini chaqirilishini talab qilishga haqli. | 8.27. Акционеры (акционер), являющиеся в совокупности владельцами не менее чем одного процента голосующих акций Общества вправе требовать созыва заседания наблюдательного совета Общества. |
| 8.28. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi bo‘lmagan taqdirda, uning vazifasini kuzatuv kengashining a’zolaridan biri amalga oshiradi. | 8.28. В случае отсутствия председателя наблюдательного совета Общества его функции осуществляет один из членов наблюдательного совета. |
| 8.29. Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan) kuzatuv kengashining barcha a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin. | 8.29. Решения наблюдательного совета Общества могут быть приняты заочным голосованием (опросным путем) всеми членами наблюдательного совета единогласно. |
| 8.30. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo‘lganlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, agar qonunchilikda va mazkur ustavda o‘zgacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa. | 8.30. Решения на заседании наблюдательного совета Общества принимаются большинством голосов присутствующих, если законодательством и настоящим уставом не предусмотрено иное. |
| 8.31. Agar jamiyat kuzatuv kengashiga saylangan a’zolarning 75 (yetmish besh) foizidan kam bo‘lmagan a’zolari majlisda qatnashsa, Kuzatuv kengashi majlisi vakolatli (kvorumga ega) bo‘ladi. | 8.31. Заседание наблюдательного совета правомочно (имеет кворум), если на заседании участвуют не менее 75 (семидесяти пяти) процентов избранных членов наблюдательного совета Общества. |
| 8.32. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga mazkur ustavda nazarda tutilgan kuzatuv kengashi a’zolaridan kamida 30 foizi mustaqil a’zolar – xalqaro tanlov asosida chet ellik soha mutaxassislarini (jumladan, vatandoshlarni) faol jalb etish orqali malakali xalqaro mutaxassislar kiritiladi. Bunda kuzatuv kengashining mustaqil a’zoligiga nomzodlar, jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan, qoida tariqasida, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi ko‘rib chiqishi uchun tanlov asosida ko‘rsatiladi. Shuningdek, aksiyadorlar tomonidan ham tanlov asosida yoki | 8.32. В состав наблюдательного совета Общества от предусмотренного настоящим уставом количества членов наблюдательного совета включаются не менее 30 % независимых членов – квалифицированных международных специалистов путем активного привлечения на основе международного конкурса зарубежных специалистов в сфере химической промышленности (в том числе из числа соотечественников). При этом, кандидаты в независимые члены наблюдательного совета, выдвигаются, как правило, наблюдательным советом на конкурсной основе для рассмотрения общим собранием |

| | |
|---|---|
| “headhunter” kompaniyalar orqali tanlab olingan nomzodlar mustaqil a’zolik uchun jamiyat kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritilishi mumkin. | акционеров. Также, кандидатуры, отобранные акционерами на конкурсной основе или через компании-«хедхантеры», могут быть внесены на обсуждение наблюдательного совета общества для независимого членства. |
| 8.33. Jamiyat ijro etuvchi organi (boshqaruvi)ning hisoboti har chorakda kamida bir marta kuzatuv kengashining majlislarida, shu jumladan, videokonferensaloqa tizimi orqali va elektron ovoz (e-VOTE) berish yoʻli bilan oʻtkaziladigan majlislarda eshitiladi. | 8.33. Отчет исполнительного органа (правления) Общества заслушивается не реже одного раза в квартал на заседаниях Наблюдательного совета, в том числе посредством видеоконференцсвязи и электронного голосования (e-VOTE). |
| 8.34. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish **kollegial ijroiya organi – boshqaruv** tomonidan amalga oshiriladi. | 8.34. Руководство текущей деятельностью Общества осуществляется **коллегиальным исполнительным органом – Правлением.** |
| 8.34.1. Jamiyat Boshqaruvi 6 (olti) kishidan iborat boʻlib, ular:<br>- Boshqaruv raisi.<br>- Boshqaruv raisining transformatsiya masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari.<br>- Boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliylashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va axborot texnologiyalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari.<br>- Boshqaruv raisining investitsiya va innovatsiya boʻyicha oʻrinbosari.<br>- Boshqaruv raisining iqtisodiyot va moliya boʻyicha oʻrinbosari.<br>- Boshqaruv raisining investitsiya masalalari boʻyicha maslahatchisi – xalqaro tanlov asosida chet ellik soha mutaxassislarini (jumladan, vatandoshlarni) faol jalb etish orqali tayinlanadigan malakali xalqaro mutaxassis. | 8.34.1. Правление Общества состоит из 6 (шесть) человек:<br>- Председатель Правления.<br>- Первый заместитель председателя Правления по вопросам трансформации.<br>- Первый заместитель председателя Правления по производству, локализации, расширению кооперационных связей в промышленности и информационным технологиям;<br>- Заместитель председателя Правления по инвестициям и инновациям;<br>- Заместитель председателя Правления по экономике и финансам;<br>- Советник председателя Правления по инвестициям - квалифицированный международный специалист путем активного привлеченного на основе международного конкурса зарубежных специалистов сферы химической промышленности (в том числе из числа соотечественников). |
| 8.35. Jamiyat boshqaruvi raisi va a’zolarini saylash (tayinlash) aksiyadorlarining umumiy yigʻilishi tomonidan uch yil muddatga har yili ular bilan tuziladigan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi toʻgʻrisida qaror qabul qilish bilan amalga oshiriladi.<br>Boshqaruv raisi sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ijro organi rahbari boʻlishi mumkin emas. | 8.35. Избрание (назначение) Председателя и членов правления осуществляется общим собранием акционеров сроком на три года с ежегодным принятием решения о возможности продления или прекращения срока действия договора, заключаемого каждым из них. Назначенное (переназначенное) в качестве Председателя правления, не может быть руководителем исполнительного органа более двух сроков подряд. |
| 8.36. Aksiyadorlar umumiy yigʻilishining qaroriga koʻra Jamiyat boshqaruvi raisi va a’zolarini tayinlash, qoida tariqasida, chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin boʻlgan tanlov boʻyicha saralash asosida amalga oshiriladi. | 8.36. По решению общего собрания акционеров назначение Председателя и членов Правления Общества осуществляется, как правило, на основе конкурсного отбора, в котором могут принимать участие иностранные менеджеры. |
| 8.37. Jamiyat boshqaruvi raisi va a’zolarining huquq va majburiyatlari “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish | 8.37. Права и обязанности председателя и членов правления определяются соответственно Законом «Об акционерных обществах |

| | |
|---|---|
| to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarida, mazkur ustavda hamda ularning har biri Jamiyat bilan uch yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to‘g‘risida har yili qaror qabul qilinadi. | и защите прав акционеров» и иными актами законодательства, настоящим уставом и договором, заключаемым каждым из них с Обществом сроком на один год с ежегодным принятием решения о возможности его продления или прекращения. |
| 8.38. Shartnoma Jamiyat nomidan Jamiyat kuzatuv kengashining raisi yoki kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. | 8.38. Договор от имени Общества подписывается председателем наблюдательного совета или лицом, уполномоченным наблюдательным советом Общества. |
| 8.39. Jamiyat boshqaruvi raisi va a’zolariga to‘lanadigan haq miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi va shartnomada belgilangan bo‘lishi kerak. | 8.39. Размеры вознаграждений Председателя и членов правления Общества находятся в прямой зависимости от эффективности деятельности Общества и должны быть определены договором. |
| 8.40. Jamiyat boshqaruvi raisi va a’zolarining vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga faqat Jamiyat kuzatuv kengashining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi. | 8.40. Совмещение функции председателя и членов правления Общества с должностью в органах управления других организаций допускается только с согласия наблюдательного совета Общества. |
| 8.41. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi Jamiyat boshqaruvi raisi va a’zolari bilan tuzilgan shartnomani ular shartnoma shartlarini buzgan taqdirda tugatishga (bekor qilishga) haqli. | 8.41. Общее собрание акционеров вправе прекратить (расторгнуть) договор с председателем и членами правления Общества при нарушении ими условий договора. |
| 8.42. Jamiyat kuzatuv kengashi boshqaruv raisi va a’zolari bilan tuzilgan shartnomani ular shartnoma shartlarini buzgan taqdirda, tugatishga (bekor qilishga) haqli. | 8.42. Наблюдательный совет Общества вправе прекратить (расторгнуть) договор с председателем и членами правления Общества при нарушении ими условий договора. |
| 8.43. Jamiyat kuzatuv kengashi boshqaruv raisi va a’zolari bilan tuzilgan shartnomani, agar ular Jamiyat ustavini qo‘pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Jamiyatga zarar yetkazilgan bo‘lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega. | 8.43. Наблюдательный совет Общества имеет право досрочного прекращения (расторжения) договора с председателем и членами правления Общества при совершении ими грубых нарушений устава Общества или причинении Обществу убытков их действиями (бездействием). |
| 8.44. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan Jamiyat boshqaruvi raisining vakolatlarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, Jamiyat boshqaruvi raisining vakolatlarini boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi masala o‘sha yig‘ilishning o‘zida hal etilishi yoxud Jamiyat boshqaruvi raisining vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlagan holda, aksiyadorlarning yaqin kunlardagi umumiy yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun qoldirilishi mumkin. | 8.44. В случае принятия общим собранием акционеров Общества решения о прекращении полномочий председателя правления вопрос о передаче полномочий председателя правления Общества другому лицу может быть решен на том же собрании либо оставлен для рассмотрения на ближайшем общем собрании акционеров с назначением временно исполняющего обязанности председателя правления Общества. |
| 8.45. Boshqaruv raisining vakolatlarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan Jamiyat kuzatuv kengashi Jamiyat boshqaruvi raisining vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi, shuningdek, Jamiyat boshqaruvi raisi to‘g‘risidagi masalani hal etish uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqiradi. | 8.45. Наблюдательный совет Общества, принявший решение о прекращении полномочий председателя правления Общества, принимает решение о назначении временно исполняющего обязанности председателя правления, а также созывает внеочередное общее собрание акционеров для решения вопроса о председателе правления Общества. |
| 8.46. Jamiyat boshqaruvining vakolatiga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy | 8.46. К компетенции правления Общества относятся все вопросы руководства текущей деятельностью Общества, за исключением |

| | |
|---|---|
| yig'ilishining yoki Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.<br>8.47. Jamiyatning boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini ta'minlaydi.<br>8.48. Jamiyat boshqaruvi raisining vakolatlari (huquqlari) va majburiyatlariga quyidagilar kiradi:<br>8.48.1. O'z vakolatlari doirasida Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish.<br>8.48.2. Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, shu jumladan, uning manfaatlarini ifodalash.<br>8.48.3. Jamiyat nomidan ishonchnomalarni berish.<br>8.48.4. O'z vakolatlari doirasida, Jamiyat nomidan bitimlar tuzish.<br>8.48.5. Xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarni tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash.<br>8.48.6. Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlash.<br>8.48.7. Shtatlarini tasdiqlash.<br>8.48.8. Jamiyatning barcha xodimlari, aksiyadorlik jamiyatlari va tashkilotlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar, farmoyishlar qabul qilish va ko'rsatmalar berish.<br>8.48.9. Jamiyat kuzatuv kengashining ishida ishtirok etish.<br>8.48.10. Banklarda hisob raqamlar (milliy va xorijiy valyuta hisob raqamlar) ochish.<br>8.48.11. Jamiyatning bank va boshqa moliya hujjatlarida birinchi imzo vakolatiga ega bo'lish.<br>8.48.12. Davlat statistika hisoboti va buxgalteriya hisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash.<br>8.48.13. Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishi va ularning mehnatini muhofaza qilishni ta'minlash.<br>8.48.14. Jamiyat xodimlarining uy-joy sotib olishlari va uy-joy qurilishlari uchun maqsadli pul mablag'lari bilan ta'minlash.<br>8.48.15. Jamiyat boshqaruvi raisi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, mazkur ustav va Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar (huquqlar) va majburiyatlarga ham ega. | вопросов, отнесенных к компетенции общего собрания акционеров или наблюдательного совета Общества.<br>8.47. Правление Общества обеспечивает исполнение решений общего собрания акционеров и наблюдательного совета Общества.<br>8.48. Полномочия (права) и обязанности председателя правления Общества:<br>8.48.1. В пределах своей компетенции руководить деятельностью Общества.<br>8.48.2. Без доверенности действовать от имени Общества, в том числе представлять его интересы.<br>8.48.3. Выдавать доверенности от имени Общества.<br>8.48.4. В пределах компетенции заключать от имени Общества сделки.<br>8.48.5. Принимать на работу сотрудников, заключать и расторгать с ними трудовые договора, применять в отношении них меры дисциплинарного воздействия, обеспечивать соблюдение сотрудниками трудовой и исполнительской дисциплины.<br>8.48.6. Назначение руководителей филиалов и представительств.<br>8.48.7. Утверждение штата.<br>8.48.8. Издание приказов, распоряжений и выдача предписаний, обязательных для исполнения всеми сотрудниками, акционерными обществами и предприятиями.<br>8.48.9. Участвовать в работе наблюдательного совета Общества.<br>8.48.10. Открывать расчетные счета (в национальной и иностранных валютах).<br>8.48.11. Полномочия первой подписи на банковских и финансовых документах.<br>8.48.12. Обеспечивать своевременное и полное представление статистической и бухгалтерской отчетности в соответствующий государственный орган<br>8.48.13. Обеспечить соблюдение социальных гарантий сотрудников и осуществление охраны их труда.<br>8.48.14. Для приобретения и строительства жилья обеспечить целевыми денежными средствами сотрудников Общества.<br>8.48.15. Председатель правления может иметь другие полномочия (права) и обязанности в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, настоящим уставом и внутренними нормативными документами Общества. |

| | |
|---|---|
| 8.49. Jamiyat Boshqaruvining vakolatlari (huquqlari) va majburiyatlariga quyidagilar kiradi: | 8.49. Полномочия (права) и обязанности правления Общества: |
| 8.49.1. O‘z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol–mulki va pul mablag‘larini tasarruf etish. | 8.49.1. В рамках своих полномочий распоряжаться имуществом и денежными средствами Общества. |
| 8.49.2. Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalar to‘g‘risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo‘riqnomalarini tasdiqlash. | 8.49.2. Утверждать положения о структурных подразделениях Общества и должностные инструкции работников Общества. |
| 8.49.3. Jamiyatning ichki me’yoriy hujjatlarini tasdiqlash, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va kuzatuv kengashining vakolatiga kiritilgan ichki me’yoriy hujjatlarini tasdiqlash bundan mustasno. | 8.49.3. Утверждать внутренние нормативные документы Общества, за исключением внутренних нормативных документов, утверждение которых отнесены к компетенции общего собрания акционеров или наблюдательного совета. |
| 8.49.4. Aksiyadorlik jamiyatlari, tashkilotlar, vakolatxonalar va filiallar uchun majburiy bo‘lgan Jamiyat boshqaruvining qarorlarini qabul qilish. | 8.49.4. Принятие решений правления Общества обязательных для исполнения акционерными обществами, организациями, филиалами и представительствами. |
| 8.49.5. Jamiyat filiallari rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish. | 8.49.5. Назначение и освобождение руководителей филиалов Общества от занимаемой должности. |
| 8.49.6. Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqish, ularni bajarilishini nazorat qilish. | 8.49.6. Разрабатывать программы и бизнес-планы развития Общества, контролировать их исполнение. |
| 8.49.7. Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko‘rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta’minlash. | 8.49.7. Обеспечивать получение прибыли в размере, предусмотренном бизнес – планом, утвержденного уполномоченным органом Общества. |
| 8.49.8. Qonunchilikka muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi va ishonchliligini hamda aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etilishini ta’minlash. | 8.49.8. Обеспечивать организацию, надлежащее состояние и достоверность бухгалтерского учета и отчетности в Обществе, а также сведений о деятельности Общества, направляемых акционерам, кредиторам и иным получателям сведений. |
| 8.49.9. Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni Jamiyatning kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi va Jamiyat auditori talabiga ko‘ra to‘sqinliksiz taqdim etish. | 8.49.9. Беспрепятственно предоставлять документы о финансово – хозяйственной деятельности Общества по требованию Наблюдательного совета, ревизионной комиссии или аудитора Общества. |
| 8.49.10. O‘z vakolatlari doirasida mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog‘liq bitimlar tuzish (bitim tuzish masalasida Jamiyat boshqaruvi yakdilligiga erishilmagan hollarda bitim tuzish to‘g‘risidagi masala Jamiyat boshqaruvi qaroriga muvofiq kuzatuv kengashi hukmiga havola etilishi mumkin). | 8.49.10. В рамках своей компетенции заключать сделки, связанные с отчуждением или приобретением имущества, либо возможностью отчуждения (в случае если члены правления не приходят к единогласию, вопрос о заключении данной сделки выносится на решение наблюдательного совета). |
| 8.49.11. Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash. | 8.49.11. Хранение сведений содержащих коммерческую тайну Общества. |
| 8.49.12. Dividendlar hisoblanishi va to‘lanishi bo‘yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish. | 8.49.12. Соблюдает все права акционеров по начислению и выплате дивидендов. |
| 8.49.13. O‘z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta’minlash. | 8.49.13. В рамках своей компетенции обеспечение эффективного и стабильного функционирования Общества. |

| | |
|---|---|
| 8.49.14. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish.<br>8.49.15. Har qanday bitim tuzilishida yoki Jamiyatga bevosita tegishli har qanday masalada muhim manfaatdorligi (to‘g‘ridan to‘g‘ri, bilvosita yoki uchinchi shaxslar nomidan) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamiyat kuzatuv kengashiga yetkazish.<br>8.49.16. Jamiyatning reputatsiya risklarini boshqarish.<br>8.49.17. Jamiyatning boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida, mazkur ustav va Jamiyatning me’yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar (huquqlar) va majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin. | 8.49.14. Соблюдать требования законодательства Республики Узбекистан и внутренних документов Общества.<br>8.49.15. Сообщать наблюдательному совету Общества сведения о наличии существенной заинтересованности (прямой, косвенной или от имени третьих лиц) в заключении какой-либо сделки или в каком-либо вопросе, непосредственно касающемся Общества.<br>8.49.16. Управление репутационными рисками Общества.<br>8.49.17. Правление может иметь и другие полномочия (права) и обязанности в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, настоящим уставом и нормативными документами Общества. |
| **IX bo‘lim.<br>Jamiyatning fondlari** | **Раздел IX.<br>Фонды общества** |
| 9.1. Jamiyatda sof foyda hisobidan zaxira va uy-joy qurish hamda sotib olish fondlari tashkil etiladi.<br>9.2. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) o‘n besh foizi miqdorida zaxira fondi tashkil etiladi.<br>9.3. Jamiyatning zaxira fondi mazkur ustavda belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi. Har yilgi ajratmalarning miqdori mazkur ustavda belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo‘lmasligi kerak.<br>9.4. Boshqa mablag‘lar mavjud bo‘lmagan taqdirda, Jamiyatning zaxira fondi Jamiyat zararlari o‘rnini qoplash, Jamiyat korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish va Jamiyat aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo‘ljallanadi.<br>9.5. Jamiyatning zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.<br>9.6. Agar Jamiyatning zaxira fondi to‘liq yoki qisman sarflansa, majburiy ajratmalar o‘tkazish tiklanadi.<br>9.7. Jamiyatda “Mehnatni muhofaza qilish fondi”, “Innovatsion faoliyatni qo‘llab quvatlash fondi” hamda “Kimyo sanoati korxonalarini rivojlantirish va qo‘llab quvatlash fondi”.<br>9.8. Fondlarni shakllantirish va mablag‘laridan foydalanish qonunchilikda va ushbu fondlar to‘g‘risidagi nizomlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.<br>9.9. Jamiyat qonunchilikda begilangan tartibda boshqa fondlarni tashkil etish huquqiga ega. | 9.1. Из чистой прибыли в Обществе создается резервный фонд.<br>9.2. Резервный фонд создается в размере пятнадцати процентов от уставного фонда (уставного капитала) Общества.<br>9.3. Резервный фонд Общества формируется путем обязательных ежегодных отчислений от чистой прибыли до достижения им размера, установленного настоящим уставом. Размер ежегодных отчислений не может быть менее пяти процентов от чистой прибыли до достижения размера, установленного настоящим уставом Общества.<br>9.4. Резервный фонд Общества предназначен для покрытия его убытков, погашения корпоративных облигаций Общества и выкупа акций Общества в случае отсутствия иных средств.<br>9.5. Резервный фонд Общества не может быть использован для иных целей.<br>9.6. Если резервный фонд Общества полностью или частично израсходован обязательные отчислений возобновляются.<br>9.7. В Обществе создаются «Фонд по охране труда», «Фонд поддержки инновационной деятельности» и «Фонд развития и поддержки организаций химической промышленности».<br>9.8. Порядок формирования и использования средств фондов осуществляется в порядке предусмотренном законодательством и положениями об этих фондах.<br>9.9. Общество вправе создавать иные фонды в порядке, установленном законодательством. |

| X bo‘lim.<br>**Dividendlarni to‘lash** | Раздел X.<br>**Выплата дивидендов** |
|---|---|
| 10.1. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko‘ra joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.<br>10.2. Dividendlarni to‘lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e’tiboran oltmish kundan kech bo‘lmasligi lozim. | 10.1. Общество вправе по результатам первого квартала, полугодия, девяти месяцев финансового года и (или) по результатам финансового года принимать решения о выплате дивидендов по размещенным акциям Общества.<br>10.2. Срок выплаты дивидендов не может быть позднее шестидесяти дней со дня принятия такого решения. |
| **XI bo‘lim.<br>Jamiyatning faoliyatini nazorat qilish** | **Раздел XI.<br>Контроль за деятельностью Общества** |
| 11.1. Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan bir yil muddatga **3 a’zodan** iborat taftish komissiyasi saylanadi.<br>11.2. Jamiyat taftish komissiyasi a’zolariga doir malaka talablari aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilanadi. Ayni bir shaxs Jamiyatning taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.<br>11.3. Jamiyat taftish komissiyasining vakolat doirasi qonunchilik va Jamiyatning mazkur ustavi bilan belgilanadi.<br>11.4. Jamiyat taftish komissiyasining yozma talabiga ko‘ra Jamiyat ijroiya organida mansabni egallab turgan shaxslar Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni taftish komissiyasiga taqdim etishi shart.<br>11.5. Taftish komissiyasi a’zolari bir vaqtning o‘zida Jamiyat Kuzatuv kengashining a’zosi bo‘lishi, shuningdek, Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlashi mumkin emas.<br>11.6. Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish taftish komissiyasining, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining, Jamiyat Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko‘ra yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko‘ra Jamiyat Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo‘li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo‘yicha amalga oshiriladi.<br>11.7. Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko‘ra Jamiyatning taftish komissiyasi xulosa tuzadi, bu xulosada:<br>- Jamiyatning hisobotlari va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning ishonchliligiga doir baho; | 11.1. Для осуществления контроля за финансово-хозяйственной деятельностью Общества общим собранием акционеров избирается ревизионная комиссия в составе **3 человек** сроком на один год.<br>11.2. Квалификационные требования к членам ревизионной комиссии Общества устанавливаются общим собранием акционеров. Одно и то же лицо не может избираться в состав ревизионной комиссии Общества более трех раз подряд.<br>11.3. Компетенция ревизионной комиссии Общества определяется законодательством и настоящим уставом Общества.<br>11.4. По письменному требованию ревизионной комиссии Общества лица, занимающие должности в исполнительном органе Общества, обязаны представить ей документы о финансово-хозяйственной деятельности Общества.<br>11.5. Члены ревизионной комиссии Общества не могут одновременно являться членами Наблюдательного совета Общества, а также работать по трудовому договору (контракту) в Обществе.<br>11.6. Проверка финансово-хозяйственной деятельности Общества осуществляется по итогам деятельности за год или иной период по инициативе ревизионной комиссии, общего собрания акционеров, Наблюдательного совета Общества или по требованию акционера (акционеров), являющегося владельцем не менее чем пятью процентами голосующих акций Общества, путем предварительного уведомления Наблюдательного совета Общества.<br>11.7. По итогам проверки финансово-хозяйственной деятельности Общества ревизионная комиссия Общества составляет заключение, в котором должны содержаться:<br>- оценка достоверности данных, содержащихся в отчетах и иных финансовых документах Общества; |

| | |
|---|---|
| - buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek, moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda, qonunchilik buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.<br><br>11.8. Taftish komissiyasi Jamiyatda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek, qonunchilikning va Jamiyat ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani har chorakda Jamiyat Kengashi kengashining majlisiga olib chiqadi. Ushbu ustavning 11.7 bandida ko'rsatilgan axborotni o'z ichiga olgan xulosa aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida eshitiladi.<br><br>11.9. Jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati Jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir.<br>11.10. Jamiyatning ichki audit xizmati Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonunchilikka, Jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishi, aktivlarning saqlanishi, shuningdek, Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.<br>11.11. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.<br><br>11.12. Auditorlik tashkiloti Jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo'ladi.<br>11.13 Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida o'n foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyat kuzatuv kengashini bu haqda oldindan xabardor qilgan holda, Jamiyat faoliyatini tekshirish uchun tashqi audit o'tkazishni tashabbus qilish huquqiga ega.<br><br>11.14. Jamiyatda kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lgan va korporativ qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi korporativ maslahatchisi lavozimi joriy etiladi. | - информация о фактах нарушения порядка ведения бухгалтерского учета и представления финансовой отчетности, а также законодательства при осуществлении финансово-хозяйственной деятельности.<br>11.8. Ревизионная комиссия ежеквартально выносит на заседание Наблюдательного совета Общества заключение о наличии сделок с аффилированными лицами или крупных сделок в Обществе, а также соблюдении требований законодательства и внутренних документов Общества к совершению таких сделок. Заключение, содержащее информацию, указанную в п.11.7. настоящего устава, заслушивается на годовом общем собрании акционеров.<br>11.9. В Общества создается служба внутреннего аудита. Служба внутреннего аудита подотчетна Наблюдательному совету Общества.<br>11.10. Служба внутреннего аудита Общества осуществляет контроль и оценку работы исполнительного органа, филиалов и представительств Общества путем проверок и мониторинга соблюдения ими законодательства, устава Общества и других документов, обеспечения полноты и достоверности отражения данных в бухгалтерском учете и финансовой отчетности, установленных правил и процедур осуществления хозяйственных операций, сохранности активов, а также соблюдения установленных законодательством требований по управлению Обществом.<br>11.11. Аудиторская организация осуществляет проверку финансово-хозяйственной деятельности Общества и предоставляет ему аудиторское заключение в установленном законодательством порядке в соответствии с заключенным с ней договором.<br>11.12. Аудиторская организация несет ответственность перед Обществом за причинение ущерба вследствие составления аудиторского заключения, содержащего неправильный вывод о финансовой отчетности и иной финансовой информации Общества.<br>11.13. Акционер (акционеры) владеющие не менее чем десятью процентами голосующих акций Общества вправе инициировать проведение внешнего аудита для проверки деятельности Общества предварительно уведомив об этом наблюдательный совет Общества.<br><br>11.14. В Общества вводится должность корпоративного консультанта, подотчетного наблюдательному совету Общества и выполняющего функции контроля за соблюдением корпоративного законодательства. |

| | |
|---|---|
| 11.15. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi. | 11.15. Деятельность корпоративного консультанта Общества осуществляется на основании положения, утвержденного наблюдательным советом Общества. |
| **XII bo'lim.<br>Yakuniy qoidalar** | **Раздел XII.<br>Заключительные положения** |
| 12.1. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va o'z vakolatlari doirasida kuzatuv kengashi tomonidan mazkur ustavga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasining tegishli davlat organida belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi.<br>12.2. Jamiyat ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, qonunchilikda belgilangan hollarda esa davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ xabardor etilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.<br>12.3. Agar mazkur ustavni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.<br>12.4. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida Jamiyatning mazkur ustavida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari qoidalari qo'llaniladi.<br>12.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini chaqirish va o'tkazish bilan bog'liq masalalar amaldagi qonunchilik bilan tartibga solinadi va Jamiyatning aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.<br>12.6. Jamiyat kuzatuv kengashi, ijroiya organi va taftish komissiyasining faoliyat ko'rsatish tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan nizomlarda belgilanadi.<br>12.7. Jamiyatning minoritar aksiyadori asosiz ravishda hujjatlarni talab qilib olish va maxfiy ma'lumotlardan, tijorat siridan foydalanish orqali Jamiyat boshqaruv organlari faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin emas.<br>12.8. Mazkur ustavda tartibga solinmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan tartibga solinadi. | 12.1. Все изменения и дополнения, вносимые в настоящий устав по решению общего собрания акционеров и в рамках своих полномочий наблюдательного совета, регистрируются соответствующим государственным органом Республики Узбекистан.<br>12.2. Изменения и дополнения в устав Общества или устав Общества в новой редакции приобретают силу для третьих лиц с момента их государственной регистрации, а в случаях, установленных действующим законодательством, с момента уведомления органа, осуществляющего государственную регистрацию.<br>12.3. В случае если одно из правил настоящего устава утратило силу, это правило не является причиной для приостановления других правил.<br>12.4. Если действующими законодательными актами Республики Узбекистан установлены иные положения, чем предусмотрено настоящим уставом Общества, то применяются правила действующих законодательных актов Республики Узбекистан.<br>12.5. Вопросы, связанные с созывом и проведением общего собрания акционеров регулируются действующим законодательством и определяются положением об общем собрании акционеров Общества.<br>12.6. Порядок деятельности наблюдательного совета, исполнительного органа и ревизионной комиссии Общества определяются положениями, утвержденными общим собранием акционеров.<br>12.7. Миноритарный акционер Общества не должен препятствовать деятельности органов управления Общества путем необоснованного истребования документов и использования конфиденциальной информации, коммерческой тайны.<br>12.8. Отношения, не урегулированные настоящим уставом, регулируются законодательством Республики Узбекистан. |

**"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi v.b.** | **И.о. председателя правления АО «Узкимёсаноат»**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHRI "O'ZKIMYOSANOAT AKSIYADORLIK JAMIYATI" Uzkimyosanoat

_______________ **T. Muxamedjanov**